

BO’LAJAK INGLIZ TILI O’QITUVCHILARINI KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYASINI TA’LIMNING UNIVERSAL DIZAYNI (UDL) TAMOYILI
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Jamoliddinova Shaxnozaxon Alisher qizi.
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
Jamoliddinovashahnoza95@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21212099>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini Ta’limning Universal Dizayni (UDL) tamoyillari asosida rivojlantirishning konseptual asoslari tahlil qilingan. Xorijiy yetakchi universitetlar va milliy ta’lim tizimi tajribasi qiyosiy o’rganilib, bo’lajak til mutaxassislarini tayyorlashda yuzaga kelayotgan metodologik to’siqlar, baholash tizimidagi qoliplar va texnik muammolar aniqlangan. Tadqiqot yakunida darslarni ko’p modalli (multimodal) tashkil etish, moslashuvchan reyting mezonlarini joriy qilish va raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish bo’yicha strategik yechimlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Ta’limning Universal Dizayni (UDL), kommunikativ kompetensiya, ingliz tili o’qitish metodikasi, oliy pedagogik ta’lim, inklyuziv muhit, ko’p modallik, moslashuvchan baholash.

Abstract: This article examines the conceptual foundations for developing the communicative competence of future English language teachers based on the principles of Universal Design for Learning (UDL) in higher pedagogical education. By conducting a comparative analysis of leading foreign universities and the national education system, the study identifies methodological barriers, rigid assessment frameworks, and technical challenges encountered in teacher training. Consequently, the paper proposes strategic solutions and practical recommendations, including the integration of multimodal instruction, flexible grading criteria, and the effective utilization of digital learning technologies.

Keywords: Universal Design for Learning (UDL), communicative competence, English language teaching methodology, higher pedagogical education, inclusive environment, multimodality, flexible assessment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются концептуальные основы развития коммуникативной компетенции будущих учителей английского языка на основе принципов Универсального дизайна обучения (UDL) в высшем педагогическом образовании. На основе сравнительного анализа опыта ведущих зарубежных вузов и национальной системы образования выявлены методические барьеры, жесткие рамки оценивания и технические проблемы, возникающие при подготовке учителей.

В заключении предложены стратегические решения и практические рекомендации, включая мультимодальное обучение, гибкие критерии оценивания и эффективное использование цифровых технологий.

Ключевые слова: Универсальный дизайн обучения (UDL), коммуникативная компетенция, методика преподавания английского языка, высшее педагогическое образование, инклюзивная среда, мультимодальность, гибкое оценивание.

KIRISH (INTRODUCTION)

Globallashuv jarayonlari va xalqaro ta’lim makonining integratsiyalashuvi sharoitida ingliz tili o’qituvchilarining kasbiy kompetentligiga qo’yilayotgan talablar sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarilmoqda. Zamonaviy pedagogdan nafaqat chet tilining lingvistik tizimini mukammal egallash, balki turli ijtimoiy-madaniy va individual xususiyatlarga ega bo’lgan ta’lim oluvchilar bilan samarali kommunikativ munosabatlarni tashkil eta olish ham talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi pedagogika va lingvodidaktikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo’lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetensiya til birliklaridan grammatik jihatdan to’g’ri foydalanish bilan cheklanmay, balki lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik hamda strategik kompetensiyalar integratsiyasini o’z ichiga oluvchi murakkab ko’p komponentli tizim sifatida talqin etiladi. Biroq amaliyotda oliy ta’lim muassasalarida qo’llanilayotgan an’anaviy o’qitish yondashuvlari ko’pincha talabalarning individual ehtiyojlari, kognitiv xususiyatlari, axborotni qabul qilish sur’ati hamda psixofiziologik farqlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada ta’lim jarayonida ayrim talabalarning faol ishtiroki va kommunikativ salohiyatini to’liq namoyon etishi uchun zarur pedagogik sharoitlar yaratilmay qolmoqda.

Mazkur muammoning samarali yechimlaridan biri sifatida AQSHning CAST (Center for Applied Special Technology) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan Ta’limning Universal Dizayni (Universal Design for Learning – UDL) konsepsiyasi e’tirof etiladi. [1] Neyropedagogik tamoyillarga asoslangan ushbu yondashuv ta’lim jarayonini barcha o’quvchilar uchun teng imkoniyatlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi hamda o’quv materiallarini taqdim etish, bilimlarni namoyon etish va o’quvchilarning ta’lim jarayoniga jalb etilishining turli usullarini taklif qiladi. UDL konsepsiyasi dastlab arxitektura shakllangan “hamma uchun qulay muhit” g’oyasining ta’lim tizimiga tatbiq etilgan shakli bo’lib, inklyuziv va shaxsga yo’naltirilgan ta’limni ta’minlashga xizmat qiladi.[2]

Ushbu maqolada bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini, xususan nutqiy malakalarini shakllantirishda UDL tamoyillaridan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda xorijiy va milliy tajribalar qiyosiy tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA (METHODOLOGY)

Maqola yozish jarayonida tizimli va qiyosiy-pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. AQSH (Xarvard va Boston universitetlari) hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bo’lajak til mutaxassislarini tayyorlashda UDL tamoyillarining tatbiq etilish amaliyoti o’rganildi.[3] Mazkur xorijiy tajribalar O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni hamda Milliy o’quv dasturlari doirasida milliy oliy ta’lim muassasalari (OTM) tizimiga qiyoslandi. Tadqiqot doirasida bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ ko’nikmalarini rivojlantirishdagi asosiy to’siqlar tahlil qilindi.

Xorijiy tajribada, ayniqsa Shimoliy Amerika va G’arbiy Yevropa oliy ta’lim muassasalarida, UDL oliy ta’limning uzviy qismiga aylangan.[4] Masalan, ingliz tili darslarida ma’lumotlar bir vaqtning o’zida matn, audio va interaktiv vizual ko’rinishda taqdim etiladi. Talabalarga o’z bilimlarini namoyish qilish uchun faqatgina insho yozish emas, balki video-blog tayyorlash yoki podkast yozish imkoniyati beriladi.[5]

O’zbekiston milliy tajribasida ham so’nggi yillarda inklyuziv ta’lim va zamonaviy metodikalarni joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biroq, bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarini tayyorlaydigan maxsus guruhlarda UDL tizimli ravishda

qo'llanilmayapti.[6] Darsliklar va o'quv-uslubiy majmualar hali ham "o'rtacha statistik talaba"ga mo'ljallangan bo'lib, moslashuvchanlik xususiyatiga ega emas.

Tadqiqotlar natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini UDL asosida rivojlantirish yo'lidagi quyidagi jiddiy **muammolar** aniqlandi:

1. Uslubiy bir xillik (Methodological Rigidity): OTMlarda darslar ko'pincha an'anaviy "O'qituvchi - Talaba" modelida, ma'ruza shaklida o'tiladi. Talabalarning tilni eshitib yoki ko'rib yaxshi o'zlashtirishi (audial, vizual, kinestetik) inobatga olinmaydi.

2. Nutqiy faoliyatni cheklovchi reyting tizimi: Amaldagi baholash usullari juda qat'iy. Masalan, talaba darsda og'zaki gapirishga uyalsa yoki psixologik to'sig'i bo'lsa, u past ball oladi. Vaholanki, uning yozma kommunikativ qobiliyati yoki raqamli muloqot madaniyati ancha yuqori bo'lishi mumkin.

3. Raqamli yordamchi vositalarning yetishmasligi: Dars xonalarida nutqni matnga o'g'iruvchi (Speech-to-Text) ilovalar yoki ekran o'quvchi dasturlardan foydalanish madaniyati shakllanmagan. Bu til o'rganish jarayonida dars samaradorligini pasaytiradi.

4. Pedagoglarning UDL haqida bilimlari kamligi: Professor-o'qituvchilarning katta qismi UDL tamoyillarini faqat "nogironligi bor shaxslar uchun ta'lim" deb noto'g'ri tushunishadi. Aslida, UDL darsdagi har bir talabaning salohiyatini ochishga qaratilgan.

NATIJA VA SUHBAT (RESULT AND DISCUSSION)

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish va kelajak poydevorini mustahkam ifodalash uchun quyidagi strategik yechimlar tizimini amaliyotga joriy etishni taklif qilamiz. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan **UDL Tamoyillari Asosidagi Yechimlar Modeli** uchta asosiy ustun g'oyaga tayanadi:

1-ustun: Ko'p modalli taqdimot (Multiple Means of Representation). O'quv ma'lumotlarini matn, audio va vizual shakllarda parallel ravishda taqdim etish.

2-ustun: Erkin ifodalash huquqi (Multiple Means of Action and Expression). Talabalarga topshiriqlarni video, podkast yoki jonli taqdimot shaklida topshirish imkonini berish.

3-ustun: Moslashuvchan baholash (Flexible Assessment Framework). An'anaviy testlar o'rniga talabaning raqamli portfoliolarini va formativ baholash tizimini joriy etish.

Ingliz tili muloqot darslarida o'quv materiallari turli formatlarda bo'lishi shart. Agar darsda yangi mavzu yoki murakkab leksika o'rganilayotgan bo'lsa, uni taqdim etish tizimini quyidagicha tashkil etish lozim:

A. *Vizual idrok etuvchilar uchun:* Mavzuning mohiyatini ochib beruvchi infografikalar, kognitiv xaritalar (mind-maps) va diagrammalar taqdim etiladi.

B. *Audial idrok etuvchilar uchun:* Haqiqiy nutqiy muhitni aks ettiruvchi audio-muloqotlar va podkastlar tayyorlanadi.

C. *Matnli idrok etuvchilar uchun:* Nutq qismlarining subtitrlı skriptlari va lug'at qismlari parallel ravishda beriladi.

Ushbu ko'p modalli yondashuv talabalarning lingvistik ma'lumotlarni qabul qilish tezligini oshiradi va har bir bo'lajak o'qituvchining individual qobiliyatiga mos ta'lim muhitini kafolatlaydi.

Ingliz tili muloqot darslarida o'quv materiallari turli formatlarda bo'lishi shart. Agar mavzu "Xalqaro muzokaralar" bo'lsa:

A. *Vizual talabalar uchun:* Infografikalar va diagrammalar.

B. *Audial talabalar uchun:* Haqiqiy audio muloqotlar (podkastlar).

C. *Matnli idrok uchun:* Subtitrli skriptlar taqdim etilishi kerak.

Kommunikativ topshiriqlarni bajarishda talabalarga tanlov imkoniyati taqdim etilishi zarur. Masalan, berilgan mavzuda nutq so’zlash uchun talaba:

- Auditoriya oldida jonli chiqish qilishi;
- Uyda o’z nutqini videoga olib, o’qituvchiga yuborishi;
- Boshqa bir talaba bilan audio-dialog yozib topshirishi mumkin bo’lsin. Bu til

o’rganuvchidagi qo’rquv va to’siqlarni bosqichma-bosqich yo’qotadi.

Baholash jarayoni talabani jazolash emas, balki uning kommunikativ o’sishini rag’batlantirishi kerak. Talabaning yakuniy balli nafaqat bir marta gapirganiga, balki uning guruhdagi loyihalarda qatnashgani, ijodiy yondashuvi va o’z-o’zini baholash (Self-assessment) natijalariga qarab shakllanishi lozim.[7]

XULOSA (CONCLUSION)

Xorijiy ilg’or tajribalar shuni ko’rsatadiki, Ta’limning Universal Dizayni (UDL) bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini oshirishda eng samarali vositadir. Ushbu tizimning milliy oliy ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki bo’lajak pedagoglarni kelajakda maktablarda inklyuziv va interaktiv darslar tashkil etishga mukammal tayyorlaydi. O’quv rejalarini moslashtirish va raqamli yordamchi vositalarni joriy etish orqali barcha talabalar uchun teng va qulay lingvistik muhit yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. CAST (2018). *Universal Design for Learning Guidelines version 2.2*. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing.
2. Rose, D. H., & Meyer, A. (2002). *Teaching every student in the digital age: Universal design for learning*. Alexandria, VA: ASCD.
3. Meyer, A., Rose, D. H., & Gordon, D. (2014). *Universal design for learning: Theory and Practice*. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing.
4. Rao, K., & Meo, G. (2016). Using the Universal Design for Learning Framework to Design Instruction in Online Higher Education Courses. *Journal of Postsecondary Education and Disability*, 29(3), 231-240.
5. Al-Azawei, A., Serenelli, F., & Lundqvist, K. (2016). Universal Design for Learning (UDL): A Content Analysis of Peer-Reviewed Journals from 2012 to 2015. *Journal of Scholarship of Teaching and Learning*, 16(3), 39-56.
6. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi me’yoriy hujjatlari. Inovatsion ta’lim muhitini yaratish konsepsiyasi. Toshkent, 2025.
7. Novak, K. (2016). *UDL Now!: A Teacher's Guide to Applying Universal Design for Learning in Today's Classrooms*. Cast Professional Publishing.